

**IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA KICHIK TADBIRKORLIK
SUB'YEKTLARI KO'RSATKICHLARI TAHLILI**

Isakov Azim Yusubjanovich

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

"Iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Maqolada kichik tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ahamiyati, sohani rivojlantirishning dolzarbligi bayon etilgan. Shuningdek, iqtisodiyotning faoliyat turlari bo'yicha tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni va salmog'i ko'rsatkichlari yordamida tahlil etilgan. Kichik tadbirkorlikdagi ayrim muammolar ko'rsatib o'tilgan va sohani rivojlantirish uchun tegishli tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: mulkchilik shakllari, tadbirkorlik, iqtisodiyot faoliyat turlari, kichik korxonalar, mikrofirmalar, mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, innovatsion texnologiya, YaIMda ulush ko'rsatkichlari, to'siqlar

Kirish

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti munosabatlarni shakllanib va rivojlanib borishi sharoitida, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlarda davlat bilan jamiyat a'zolari o'rtaida yangidan-yangi munosabatlarni shakllanishi sodir bo'lib, pirovard natijada aholining moddiy-farovonligi va mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yanada rivojlanishi uchun zamin tayyorlanadi. Ayniqsa, hozirgi sharoitda mahsulot va xizmatlar sifatiga bo'lgan talab va bunda raqobat munosabatlarining hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mamlakat iqtisodiyotida sodir bo'layotgan ijobjiy o'zgarishlarda ishlab chiqarish hajmining o'sib borishi va mamlakatda ishlab chiqarilayotgan tovarlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini ortib borishi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Raqobatbardoshlik muhitini shakllanishi va rivojlanishini mulkchilik shakllari turlicha bo'lgan xo'jalik sub'yektlari o'rtaida sodir bo'lishi bozor iqtisodiyoti sharoitida ob'yektiv zaruriyatdir. Bunda kichik tadbirkorlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu borada prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek: "Har bir mamlakatda tadbirkorlar katta kuch-qudrat bo'lib kelgan. O'zbekistonimizda ham iqtisodiyotni rivojlanirish, ish o'rnlari yaratish, kambag'allikni qisqartirish, mahallalarni obod etishga harakat qilyapmiz. Bunga eng katta hissa qo'shayotgan kim? Tadbirkorlar! Sizlar har biringiz qahramonsiz, fidoyisiz. Biz sizlar bilan faxrlanamiz... O'tgan bir yilda kichik tadbirkorlar soni 40 mingtaga, o'rta tadbirkorlar soni 2 mingtaga, yirik korxonalar soni esa 400 taga ko'paygan. Berilgan

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 7, Iyul 2024

yengilliklardan foydalanib, bir yilda 155 ta korxonaning yillik aylanmasi 100 million dollardan oshgan. Kiritilgan yillik xorijiy sarmoyalar hajmi esa ilk bor 10 milliard dollarga yetgan".[1]

Demak, iqtisodiyotda qo'llaniladigan turli mexanizmlardan foydalangan holda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining iqtisodiyotdagি ulushini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi, uning doirasida tadqiqotlar olib borish zarurligini ko'rsatib beradi.

Asosiy qism

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish sharoitida raqobat keskinlashadi. Bunda aynan kichik biznes va tadbirkorlik o'zining harakatchanligi, kam kapital mablag'larini jalg qilgan holda ishlab chiqarishni yengilroq va tez modernizatsiya qilish orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini qisqa davr ichida yangilab raqobatbardosh mahsulotlarni iste'molchilarga taqdim etadi. O'zbekistonda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, amalga oshirilayotgan bozor islohotlari barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash orqali aholining turmush farovonligini oshirishga qaratilgan. Aholining ish bilan bandligini va turmush farovonligini oshirishda kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishini bevosita tadbirkorlik sub'yektlari soni va salmog'ini o'zgarishini tahlil etish orqali ham o'rganish mumkin.

2023 yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida – 33 470 birlik, sanoatda – 14 101 birlik, qishloq xo'jaligida – 9 388 birlikni tashkil etgan[5].

Jami ko'rsatkichda esa ularning sonini 2023 yilda 2022 yilga nisbatan kamayganligini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

Iqtisodiy faoliyat turlari	2022 yil	2023 yil	O'zgarish sur'ati, (+;-) da
Jami	90177	86030	-4147
Qishloq, o'rmon va baliqchilik	12018	9388	-2630

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 7, Iyul 2024

xo'jaligi			
Sanoat	16191	14101	-2090
Qurilish	4795	4859	64
Savdo	34384	33470	-914
Tashish va saqlash	3355	3946	591
Yashash va ovqatlanish bo'yicha	5812	5955	143
Axborot va aloqa	2617	2932	315
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1498	1458	-40
Boshqa faoliyat turlari	9507	9921	414

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan kichik tadbirkorlik sub'yeqtalarini qo'llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berilayotgan katta e'tiborlar natijasida 2018-2023 yillarning yanvar-dekabr oylari davomida jami 510,1 mingta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi sub'yeqtlar savdo sohasida – 189,5 mingta (yoki 37,1 %), xizmatlar sohasida – 123,4 mingta (yoki 24,2 %), sanoat sohasida – 99,0 mingta (yoki 19,4 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 61,1 mingta (yoki 12,0 %) va qurilish sohasida – 37,1 mingta (yoki 7,3 %) tashkil etilgan.

2-jadval

Kichik tadbirkorlik sub'yeqtalarining ulush ko'rsatkichlari

Iqtisodiy faoliyat turlari	O'lchov birligi	2022 yil	2023 yil	O'zgarish sur'ati, (+;-) da
Faoliyat yuritayotgan	birlik	523556	417080	-106476

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 7, Iyul 2024

kichik korxona va mikrofirmalar soni				
Yangi tashkil etilgan	birlik	90177	86030	-4147
Kichik tadbirkorlik ulushlari:				
YaIM	%	51,6	51,2	-0,4
Sanoat	%	26,0	26,9	0,9
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	94,8	94,8	-
Investitsiya	%	47,9	51,4	3,5
Qurilish	%	71,5	74,7	3,2
CHakana savdo	%	84,7	83,8	-0,9
Xizmatlar	%	49,4	47,7	-1,7
Yuk tashish	%	47,4	50,8	3,4
Yuk aylanmasi	%	72,4	73,5	1,1
Yo'lovchi tashish	%	92,4	91,6	-0,8
Yo'lovchi aylanmasi	%	95,0	95,1	0,1
Eksport	%	31,2	29,0	-2,2
Import	%	49,5	50,7	1,2

2023 yilning yanvar-dekabrida YaIM tarkibida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishdagi ulushi 51,2 % ni tashkil qildi.

2023 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining YaHMdag'i hududlar bo'yicha eng yuqori ulushi Surxondaryo viloyatida – 75,9 %, Jizzax viloyatida 73,7 %, Namangan viloyatida – 72,8 %, Samarqand viloyatida – 72,8 %, Buxoro viloyatida – 71,7 % va Xorazm viloyatida – 69,7 % ni tashkil etdi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, viloyat iqtisodiyotida kichik biznes sub'yektlarini rivojlanishi ko'rsatkichlarida ijobiyl o'zgarishlar bilan bir qatorda ayrim muammolar mavjud bo'lib, bu sohani samarali rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, mazkur muammolarga quyidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin: soliq tizimini tartibga solish va bank tizimini tartibga solish masalalarini yanada kengroq tahlil etish zaruriyatini borligi[2]; xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy to'siqlari[3]; malakali kadrlarga bo'lgan

ehtiyoj, tadbirkorlik faoliyatidagi xorijiy investitsiyalardan foydalanishdagi muammolar; investorlar uchun axborotlarni yo'qligi[4]; mahalliy hokimiyatning investitsiyalarni jalb qilishda past darajali qizishi; operatsiyalarni amalga oshirishning yuqori qiymati va murakkabligi; xom ashyoning cheklanganligi; mavjud iqtisodiy hududlarining zaif rivojlanishi va boshqa shu kabilar.

Xulosa va tavsiyalar

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyatda kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish ahamiyati katta bo'lib, uni quyidagilarda ko'rish mumkin: iqtisodiy sohada ish o'rinlarini yaratish, mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, ilmiy-texnika taraqqiyotini yuksaltirish, byudjetni soliq va yig'imlar bilan to'ldirish, bozor munosabatlarini shakllantirish va takomillashtirishda; ijtimoiy sohada tadbirkorlik insonlarda o'z intellektual mahoratlarini ishga solish undan manfaat ko'rish tuyg'usini uyg'unlashtirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj tabaqasi mehnatini istifodaga kiritish orqali moddiy ta'minotni mustahkamlashda; cheklangan resurslar – kapital, mehnat, yer va moliyaviy resurslardan bozor talabi asosida mukammal foydalanishni rag'batlantirishda; tashkiliy va boshqaruv sohasida tadbirkorlar ishlab chiqarishi va xizmatlarining ixtisoslashuvi va kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, ortiqcha boshqarish bo'g'inlarini ixchamlashtirish asosida yuqori ko'rsatkichlarga erishishda; o'z doirasida cheklanmasligi, balki ularni tadbirkorlikni yanada yuksaltirish yo'lida muntazam ravishda yangiliklarni izlab topishga, eski iqtisodiy munosabatlarni o'zgartirishga tayyor bo'lishligida.

Iqtisodiyot sohasida kichik tadbirkorlik sub'yektlarini salmog'ini oshirish, uni rivojlantirish va mavjud muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz: kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning hududiy dasturlarini ishlab chiqish; iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida kichik tadbirkorlik korxonalarini tashkil etishni rag'batlantirish – tadbirkorlar uchun berilayotgan imtiyozlar va kafolatlarni kengaytirish va ular mas'uliyatlarini oshirish; mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tadbirkorlarga bo'sh bino va ishlab chiqarish maydonlarini ajratish, ijara berish; xorijiy mamlakatlarning tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-kuvvatlash tajribalarini respublika xususiyatlariga muvofiq ijodiy tarzda qo'llash; kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi barcha sun'iy to'siqlarga barham berish va boshqa shu kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Президент тадбиркорларга: Ҳар бирингиз қаҳрамонсиз.
<https://president.uz/uz/lists/view/6557>
2. Ergasheva Fotima Ibragimovna, & Ismoilova Gulnoza Ravshanjonovna. (2024). KICHIK TADBIRKORLIK SUB'YEKTLARINING UMUMIY IQTISODIY HOLATINI BAHOLASH DINAMIKASI. Yangi O'zbekistonda tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, 2(4), 189–195.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11068373>.
<https://zenodo.org/badge/DOI/10.5281/zenodo.11068373.svg>.
3. Эргашева Фотимахон Ибрагимовна, & Охунжонова Мадина Исоқжоновна. (2024). КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИНИНГ УМУМИЙ ИҚТИСОДИЙ ФАОЛИЯТИ ТАҲЛИЛИ. Yangi O'zbekistonda tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, 2(4), 196–204.
<https://universalpublishings.com/index.php/gumanitar/article/view/5322/10475>
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11068406>.
4. Эргашева, Ф. И. (2023). ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА АХБОРОТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH", 14(1).
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. *Stat.uz*.